O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

5-6-SINFLARDA ONA TILI FANIDAN O‘QUV TOPSHIRIQLARINI PRAGMATIK METODIK TAKOMILLASHTIRISH

Xoliqova Ra’no Musurmon qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili fanidagi o‘quv topshiriqlarini takomillashtirish va unga pragmatik yondashish borasida metodik ishlar tahlil qilingan. Bunda 5-6-sinf ona tili darsligi obyekt sifatida tanlab olingan. Shuningdek, o‘quv topshiriqlarini pragmatik metodik takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quv topshiriqlari, progmatik yondashuv, metodika, ilmiy-metodik manbalar, zamonaviy metodlar, dars mashg‘ulotlari.

Kirish. Bugungi kunda o‘zbek tilining ona tili sifatidagi nufuzi va mavqeini oshirish, zamonaviy o‘qitish metodikasini joriy etish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda shakllangan yangi til siyosati uning ta’limiga ham zarur talablarni qo‘ymoqda. Ona tilidan bilimlarni tanlashning bosh mezoni uning foydalilik va amalda qo‘llanila olish darajasidir. Biz ona tilidan foydali bilimlar deb bolalarning savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan, uni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash va rivojlantirishni ta’minlaydigan bilimlarni tushunamiz. Modomiki shunday ekan, ona tili darsliklariga kiritilgan mashqlar va o‘quv topshiriqlari o‘quvchilarda ona tili bo‘yicha bir qator lingvistik bilimlarni rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. O‘quv topshiriqlarini tuzishga asos bo‘luvchi o‘quv materiallarini tanlash, ona tili ta’limi maqsadini, mazmunini belgilash borasida mustaqillikning dastlabki yillarida tizimli tadqiqotlar olib borildi. O‘quvchi uyda, sinfda va ko‘chada foydalanadigan ona tili orqali atrofidagi olam va inson faoliyati haqida dastlabki ma’lumotlarni oladi. Demak, bugungi kunning eng muhim masalasi – ona tili ta’limini hayotga yaqinlashtirish, amaliy ahamiyatini kuchaytirishdir. Ona tili orqali o‘quvchi tafakkurida olamning lisoniy manzarasi, milliy madaniyatlar shakllanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. X.Muxitdinova o‘quv topshiriqlari, jumladan, mashqlarning ahamiyati haqida shunday deydi: “Hozirgi kunda o‘zbek tilini o‘qitish tamoyillari, ularda beriladigan o‘quv materiallarining tartibi va taqsimoti bilan bir qatorda, dars jarayonida o‘zbek tilini o‘rgatishga yo‘naltirilgan mashqlar tarkibi va turlarini takomillashtirish, ularni zamonaviy ta’lim mashg‘ulotlariga moslashtirib qo‘llash yo‘llarini topish o‘zbek tili ta’limi mutaxassislari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir”[1].

Ta’limning sifatini belgilab beruvchi eng muhim indikator, ham shakllantiruvchi ham sinash jarayonida qatnashuvchi vositalar – mashqlar tizimi, shuningdek savol va topshiriqlardir. Bular – ona tili ta’limi mazmunini, o‘qitish metodikaning asosini tashkil etadi. Ilmiy, ilmiy-metodik manbalarda ta’lim mazmuni tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Jumladan, rus pedagog-olimlari I.Y.Lerner [2] va M.N.Skatkinlar ta’lim mazmuniga o‘rganish uchun tanlangan va o‘quvchilarning

o‘zlashtirishlariga mo‘ljallangan, metodik jihatdan ishlangan boy ijtimoiy tajribaning bir qismi sifatida qaraydilar.

Tahlil va natijalar. Ona tili orqali o‘quvchilar milliy mentalitetni, hayotni, xalqning madaniy merosini o‘rganishlari kerak. Albatta, bu pragmatik xarakterdagi o‘quv topshiriqlari ishlab chiqish orqali amalga oshadi. Ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilar savol va topshiriqlar asosida tilning amal qilish qoidalarini o‘rganadilar. Mashq tarkibida berilgan gaplar, matnlar o‘quvchining lug‘at boyligini oshirishga xizmat qiladi, biroq ular ustida qanday ish olib borish hali muammoligicha qolmoqda. Ona tili darslarida anglash, fahmlash, nutq so‘zlashni o‘rgatibgina qolmay, balki topshiriqlar orqali o‘quv adabiyotlariga yo‘naltirilsa, ona tilining jonli va tabiiy til ekanligiga ham ishonch hosil qilishadi.

Agar ona tili mashg‘ulotlarida o‘quv topshiriqlari o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llanilsa, o‘quvchilar ma’lumotlar bilan ishlay olishga topshiriqlar orqali to‘g‘ri yo‘naltirilsa, axborot texnologiyalari asrida manba muammo bo‘lmaydi. Endi bilimdon o‘quvchilar tayyorlash vaqti o‘tdi. Bugungi davrning talabi biluvchi, bilib oluvchi o‘quvchilarni tarbiyalashdir. Agar o‘quvchiga to‘g‘ri va maqsadli savol berilsa, hayot uchun foydali topshiriqlarni bajarishga o‘rgatilsa, zarur nutqiy malakalar mashq orqali hosil qildirilsa, ijodiy tafakkur sohiblari yetishib chiqishiga sharoit yaratilgan bo‘ladi.

O‘quv topshiriqlari faqat maktabda emas, maktabdan tashqari oilada, ko‘chako‘yda ham ahamiyatlidir. Ota-onalar ham mahalladoshlar ham o‘quvchiga savol berganda uning yoshi, intellektual imkoniyati va psixofiziologiyasini inobatga olishlari lozim. Bolani kichik yoshdan atrofni kuzatishga, tushunmagan, ilk marta ko‘rgan narsa-hodisalar haqida ma’lumot olishga qaratilgan savollarni berishga o‘rgatish, avvalo, ota-onaning vazifasi. O‘quvchi maktabga qadam qo‘yganida o‘z ona tilida gaplasha oladigan, atrofidagilarning so‘zlarini tushuna oladigan darajada rivojlangan bo‘ladi. Shu bois, ona tili ta’limining vazifasi o‘quvchini gapirish va tinglab tushunishga o‘rgatishdan iborat bo‘lmaydi. Til ko‘nikmalarining bu ikki turi bolaga tili chiqqan paytdan boshlab singib bo‘lgani inobatga olinsa, maktabda ona tili ta’limida dastlabki shakllantiriladigan ko‘nikmalar – o‘qish va yozishni o‘rgatish ekanligi ayon bo‘ladi, biroq bu til ta’limining to‘rt muhim unsuri bo‘lgan – gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozish ko‘nikmalari ustida ishlashni to‘xtatish kerak degani emas.

Ona tili ta’limidan farqli ravishda boshqa tilni o‘rganish jarayonida bajariladigan mashqlarning asosiy qismi muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, keyingi paytlarda bunday mashqlarni ayrim metodistlar nutq mashqlari va til mashqlariga ajratishni tavsiya etmoqdalar [1], degan mulohazasi nihoyatda to‘g‘ri bo‘lib, mashqlar nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi vosita sifatida qaraladi.

Ilmiy manbalarda “ta’lim mazmuni” tushunchasi bilan birga “o‘quv materiali” atamasi ham qo‘llaniladi. Didaktikada o‘quv materiali tushunchasi keng va tor ma’nolarda ishlatiladi. Keng ma’noda u “ta’lim mazmuni” tushunchasiga teng bo‘lsa, tor ma’noda ma’lum darajada o‘rganilishi kerak bo‘lgan, o‘quvchilarning o‘zlashtirishlariga moslashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar tizimi tushuniladi.

Ta’lim mazmuni esa a) o‘quv rejalari, b) o‘quv dasturlari, d) darsliklar hamda d) o‘quv-metodik qo‘llanmalar nazarda tutiladi. Ona tilidan dastur hamda darsliklar o‘quvchilarning o‘rganishlari uchun tanlangan va ularning o‘zlashtirishlariga muvofiqlashtirilgan til materiallarini o‘z ichiga oladi [3]. Maktab darsliklarida millat tafakkuri va mafkurasining eng ilg‘or namunalari aks etishi kerak, degan ta’kid, fikrimizcha, “Ona tili” darsliklariga ko‘proq tegishlidir.

Xulosa. Fikrimiz yakunida shuni ta’kidlash mumkinki, darsni, ona tili ta’limi mazmuni o‘quv topshiriqlari yuzaga chiqarishini inobatga olsak, yangi yaratilgan metodikani harakatga keltiruvchi ta’lim mazmunida muhim ahamiyatga ega ekani ma’lum bo‘ladi. O‘quv topshiriqlari metodikaning asosini tashkil etadi.

Ona tili o‘qitish metodikasini isloh qilishning asosi – bu mashq va topshiriqlarni qanday qo‘yish, qanday savol berishga bog‘liq. Bu esa, bugungi kunda ona tili ta’limida o‘quv topshiriqlarini takomillashtirish zaruriyatini o‘rtaga qo‘ymoqda. Demak, o‘quvchilarga hayoti davomida har qanday vaziyatda, har onda asqotadigan bilim va ko‘nikmalar berilishi kerak. Yangicha yondashuvlarning o‘z vaqtida amaliyotga joriy etilayotgani, muammoning manbasi kech bo‘lsa-da aniqlangani bu jarayonni sog‘lomlashtirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдуллаева, Ш. А. (2019). Педагогик диагностика. Тошкент: Университет, 310.
2. Лернер И. Я. Дидактические основы методов обучения Текст. / И. Я. Лернер. – М.: Педагогика, 1981. –186 с.
3. Мирзаев И.К. Таълим дарсликдан бошланади. Республика илмийамалий конференцияси материаллари. – Тошкент: ТДПУ, 2008. – 244–248 б.
4. Муҳиддинова Ҳ. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш. Пед. ф. номз. - дисс . – Тошкент: ТДПИ, 2011. – 270 б.
5. Неъматова Г. Ижодий тафаккурни ривожлантириш технологияси ва ўқитувчининг мустақил фаолияти. Она тили ўқитувчилари учун методик тавсиялар. – Тошкент, 2001. – 96 б.
6. Сафарова Р., Нуржанова Р., Неъматов Ш., Қучкарова Ф. Замонавий дарсликларда концентризм принципи асосида тақдим этиладиган ўқув материалларини танлаш ва блокларга ажратиш. –Т.: Фан ва технология,

INTERRACIAL FRIENDSHIP AND LOVE IN “THE LAST OF THE MOHICANS” BY JAMES FENIMORE COOPER

Murodova Dilnavoz
Phd Student, Uzbekistan State World Languages University
dil7navoz@gmail.com